

XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 537,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 30,2 ming kishiga yoki 102,0 foizga ko'paydi. Shundan, 721,6 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 816,0 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2025- yilning 1-yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1 537,6	721,6	816,0	102,0	102,0	102,0	100,0	100,0	100,0
<i>shahar:</i>									
Jizzax	200,0	200,0	0	102,1	102,1	0	13,0	27,7	0
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	49,5	17,0	32,5	101,6	101,2	101,9	3,2	2,4	4,0
Baxmal	174,2	48,1	126,1	102,1	102,6	101,9	11,3	6,7	15,5
G'allaorol	190,6	66,2	124,4	102,0	101,7	102,1	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	248,8	99,1	149,7	102,3	102,5	102,3	16,2	13,7	18,3
Do'stlik	71,0	30,0	41,0	101,4	101,7	101,2	4,6	4,1	5,1
Zomin	183,9	87,3	96,6	102,5	102,5	102,4	12,0	12,1	11,8
Zarbdor	96,5	53,3	43,2	102,0	101,9	102,1	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	54,5	24,8	29,7	101,5	102,2	101,7	3,5	3,4	3,6
Mirzacho'l	56,3	31,5	24,8	101,6	101,6	101,6	3,6	4,4	3,1
Paxtakor	82,4	39,6	42,8	101,9	101,5	102,1	5,4	5,5	5,2
Forish	99,7	18,4	81,3	101,3	101,1	101,4	6,5	2,5	10,0
Yangiobod	30,2	6,3	23,9	101,3	100,0	101,7	2,0	0,9	2,9



Jizzax viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2025- yilning 1-yanvar holatiga)


Doimiy aholi soni

1 537,6
ming kishi


Tabiiy o'sish

+32,4
ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi



2025- yilning 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 537,6 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar 776,1 ming kishini (jami aholi sonining 50,5 %) va ayollar 761,5 ming kishi (49,5 %) ni tashkil qildi.





Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2025- yil 1-yanvar xolatiga)

Jizzax viloyati



Doimiy aholi sonining ming kishi



Doimiy aholisi soni




Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	40 875	38 561	27,4	25,3
Vafot etganlar	6 841	6 190	4,6	4,1
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	11 863	11 165	8,0	7,3
Ajralishlar	1 679	1 696	1,1	1,1

Tug'ilish. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 38 561 kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (40 875 kishi) nisbatan 2 314 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,3 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Zafarobod (26,6 promilledan 22,7 promillegacha), Jizzax shaxrida (25,6 promilledan 22,3 promillegacha), Baxmal (31,2 promilledan 28,5 promillegacha), Paxtakor (26,5 promilledan 24,2 promillegacha) tumanlarida kuzatildi.




O‘lim. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 6 190 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (6 841 kishi) nisbatan 651 kishiga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-dekabr 4,6 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli kamayishi Zafarobod (5,5 promilledan 3,6 promillegacha) Arnasoy (4,8 dan 3,3 promillegacha) va Sharof Rashidov (4,8 dan 3,8 promillegacha) tumanlarida kuzatildi.

O‘lim darajasining o‘shish ko‘rsatkichi Mirzacho‘l (3,7 promillega) tumanida kuzatildi.


Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti
2024- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O‘lganlar umumiy sonidan 52,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 foizi – o‘sma kasalliklaridan, 8,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,8 foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 9,0 foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,3 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 14,5 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 11 165 ta nikohlar va 1 696 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,3 ni (2023- yilning yanvar-dekabrda 8,0 bo'lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 ni (2023- yilning yanvar-dekabrda 1,1 bo'lgan) tashkil etgan.

2024 -yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda tuzilgan nikoh koeffitsiyentlari



Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan hududlarda kamayish kuzatilgan. Bunda eng yuqori kamayish sur'ati Jizzax shahri (1,6 %) va Yangiobod (1,2 %) tumanida kuzatildi.




Hududlarda yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Jizzax viloyati	11 863	11 165	1 679	1 696
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 766	1 478	285	316
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	305	307	44	48
Baxmal	1 521	1 407	158	156
G'allaorol	1 561	1 483	196	238
Sharof Rashidov	1 830	1 857	265	251
Do'stlik	484	439	82	56
Zomin	1 442	1 385	190	194
Zarbdor	657	671	111	108
Zafarobod	379	350	57	56
Mirzacho'l	347	350	68	74
Paxtakor	618	563	104	100
Forish	719	674	80	72
Yangiobod	234	201	39	27

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyentlari
(2024-yil yanvar-dekabr oylarida)



Ajrimlar sonida 2023- yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatildi.

Nisbatan yuqori kamayishlar soni Do'stlik (0,4 taga) va Yangiobod (0,4 taga) tumanlarida kuzatildi.



2024 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'lish soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jizzax viloyati	34 034	32 371	22,8	21,2
<i>shahar:</i>				
Jizzax	4 132	3 522	21,3	17,8
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	870	939	18,0	19,1
Baxmal	4 424	4 178	26,3	24,2
G'allaorol	4 438	4 268	24,0	22,6
Sharof Rashidov	6 134	6 052	25,5	24,6
Do'stlik	1 387	1 284	19,9	18,2
Zomin	4 348	4 340	24,5	23,9
Zarbdor	2 191	2 130	23,4	22,3
Zafarobod	1 123	1 033	21,1	19,1
Mirzacho'l	908	852	16,6	15,3
Paxtakor	1 750	1 619	21,8	19,9
Forish	1 853	1 696	19,0	17,1
Yangiobod	476	458	16,0	15,3

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 586 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 9 824 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 2 238 kishini tashkil etgan, 2023- yilning mos davrida minus 2 120 kishi bo'lgan.



Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Jizzax viloyati	6 307	7 586	8 427	9 824	-2 120	-2 238
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 484	2 205	1 451	1 570	33	635
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	167	233	389	406	-222	-173
Baxmal	336	507	842	1 030	-506	-523
G'allaorol	334	333	758	918	-424	-585
Sharof Rashidov	1 136	1 119	1 017	1 423	119	-304
Do'stlik	326	357	586	657	-260	-300
Zomin	574	748	613	708	-39	40
Zarbdor	341	294	497	594	-156	-300
Zafarobod	244	212	389	386	-145	-174
Mirzacho'l	509	612	509	550	0	62
Paxtakor	485	498	560	647	-75	-149
Forish	263	293	608	664	-345	-371
Yangiobod	108	175	208	271	-100	-96

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G'allaorol (minus 585 kishi) Baxmal (minus 523 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Jizzax shahrida (635 kishi) kuzatildi.